O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

QADIMGI TURKIY TIL

FANI BO’YICHA MA’RUZALAR MATNI

(FILOLOGIYA TA’LIM YO’NALISHI UCHUN)

ALLABERDIYEV A A

Navoiy – 2008 y

Mazkur ma`ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta`lim vazirligi tomonidan 2008- yil 28 -avgustda tasdiqlangan namunaviy dastur asosida tuzilgan.

Taqrizchi : f.f.d. N Murodova

Ilmiy-uslubiy kengashining 2008- yil 15-sentabr 2-son qarori bilan tasdiqlangan.
Ushbu ma`ruzalar matni O`zbek filologiyasi fakulteti birinchi bosqich bakalavr yo`nalishi talabalari uchun mo`ljallangan.

QADIMGI TURKIY TIL VA UNING TARAQQIYOT YO'LLARI (2 soat)

Dars rejasi:

1. Qadimgi turkiy til kursining vazifasi va mundarijasi
2. Qadimgi turkiyga oid muhim asarlar va bibliografik manbalar.
3. Qadimgi turkiy tilni o'rgangan mashhur olimlar.
4. Qadimgi turkiy tilda yozilgan yirik bitiktoshlar.

Adabnyotlar:

1R.Abdurahmonov,A.Rustamov.Qadimgi turkiy til.T.:O'qituvchi.1982y 3-6 betlar

2.S.A.Baskakov. Vvedeniye v izucheniye tyurkyokix yazыkov. M-1962 str 113-117

3.S.B.Malov. Pamyatniki drevnetyurkskoy pismennosti M -L 1951str. 96-97

4. D.M.Nasilov. Izucheniye pamyatniki» drevne uyg'urskogo yazыka v otechestvennom vostokovedenii. Tyurkologicheyokiy sbornik M 1970 str. 93-110

Ma'ruzaning to'la mazmuni

Tekshirish savollari

1. Turkiy tillar tarixi haqida ma'lumot bering.
2. Qadimgi turkiy tilga oid asarlarni ayting.
3. Turkiy til davrlari haqida aytib bering.
4. Qadimiy turkiy tildagi yozma yodgorliklar namunalari haqida tushuntirib bering.

Tayanch tushunchalar.

TO'NYUQUQ bitiktoshi. Bu yozuv yodgorligi ikkinchi turk hokonligiga asos solgan Eltarish xoqonining(asl oti Qutlug', Xitoy manbalarida Gudulu) maslahatchisi va sarkarda To'nyuquqqa bag'ishlanib 712-716 yillar orasida toshga uyib yozilgan.

Kultigin bitiktoshi - bu bitiktosh Eltarish o'g'li Bilga hoqonning inisi Kultigin sharafiga qo'yilgan. Kultigin 731 yil 27 fevralda 47 yoshida vafot qildi.

Bilga Xoqon bitiktoshi - bu marmarga bitilgan Eltarish Hoqonning o'g'li Kultiginning og'asi Bilga Xoqon (asl oti Xitoy yilnomalarida Mo'g'ilon deb berilgan) sharafiga 735 yilda qo'yilgan.

O'zbek tili turkiy tillarga mansub bo'lib, oltoy nazariyasiga mo'g'il, tungus-manjur, korsys va yapon tillari bilan birgalikda oltoy tillari oilasini tashkil etadi. Oltoy tillarini urol

tillari (ugor, fin na samodiy tillari) bilan qardosh deb hisoblovchilar ham bor.

Oltoy nazariyasiga ko'ra turkiy tillarning, jumladan o' o'zbek tilining tarixi, oltoy tillarining qadimda bir til bo'lgan - oltoy davridan boshlanadi. Tarixiy hujjatlarning yo'qligi sababli bu davrning sanalari noma'lum. Oltoy bobo tili dastlab tungus-manjur va turk mo'g'il -tillariga, turk mo'g'il tili esa turk va mo'g'il tillariga ajrashgan.

Qadimgi turkiy til kursi katta uch davrni o'z ichiga oladi.

1. Eng qadimiy turkiy til (VI asrgacha bo'lgan davr);
2. Qadimgi turkiy til (VI asrdan XI asrgacha)
3. Eyoki turkiy til (XI asrdan XIII asrgacha)

Undan keyingi davrlar eyoki o' o'zbek adabiy tili va hozirgi o' o'zbek adabiy tiliga oiddir.

I. Eng qadimgi turkiy til hozirgi O'rta Osiyo territoriyasida yashagan sak va massaget qabilalari tiliga xun va yusgchji hamda boshqa turkiy qabila va urug'larning tili aralashuvidan hosil bo'lgan tildir. Bu davrga oid yodgorliklar saqlanib qolmagan.

II. .Qadimgi turkiy til - turk hoqonliginikg shakllaningidan Qoraxoniylargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrning yozma yodgorliklari bizgacha yetib kelgan. Qadimgi turkiy yoema yodgorliklariga turkiy run (O'rxun-Enisey), uyg'ur va qisman moniy (yoki monaviy), birahmon (brahma), sug'dda yozilgan obidalar kiradi.Bular ichida eng mashhuri turk xonlari Kultigin va Tunyuquq sha'niga qo'yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorlikdir. Bu toshlar O'rxun (Mo'g'iliston) va yenisey daryolari bo'ylaridan topilganligi sababli fanda « O'rxun-Enisey yozuvlari» deb nomlanadi. SHuningdeq bu yozuv run nomi bilan ham ataladi. "Run" so'zi Skandinaviya xalqdari tilida "sirli, tilsim" ma'nolarida qo'llangan. Sibirda surgunda bo'lgan shved ofitseri F.T.Tabbsrt-Stralenberg 1730 yilda O'rxun-Enisey yozuvining bir nechalarini topib, hali tarixda noma'lum bo'lgan va hech kimsaga tushunarli bo'lmagan bu yozuvni yuqoridasidek nomlagan edi.

Bu yozuvni dastlab V.Tomsen o'qidi. U 1893 yil 15 dekabrda Daniya fanlar akademiyasi majlisida O'rxun daryosi buyidan topilgan yodgorliklarni sirini topganligini ma'lum qildi va bu yodgorlik turkiy xalqlar tilida yozilganligini bildirdi. 1894 yil 19 yanvarida V.Radlov "Kultegip" sharafiga qo'yilgan yodgorlikniig tarjimasini bsradi. R.Melioranyokiy 1899 yilda uniig tarjimasini beradi. O'rxun-Enisey yodnomalari o'z navbatida yana uch

tarmoqga bo’linadi.

1. Enisey yodgorliklari- Bu hozirgi yenissy va Tuva avtonomviloyatidan topilgan yodgorliklardir.

2. O’rxun yodgorliklari. Mo’g’iliston territoriyasidagi O’rxun,Toli daryolari buyidan topilgan Kultegin, Tunyuquq yodgorliklardir.

3. Talas yodgorliklari.Hozirgi Jambul viloyati buyidan topilgan yodgorliklardir.

III. Eyoki turkiy til. Bu davrni «Qoraxoniylir davri» deb ham yuritiladi. Bu davrdagi yodgorliklar uyg’ur va arab yozuvida yozilgan. Arab yozuvi uyg’ur yozuviga nisbatan stabillashgan holda qo’llanadi.

Bu davrda o’ o’zbek xalqi va uning tili shakllaningiga zamin tayyorlana boshlaydi. Qoraxoniylar davrida qarluq, uyg’ur va qisman qipchoq. o’g’o’z urug’ tillari xususiyatini o’z ichiga olgan turkiy adabiy til mavjud edi. Bu adabiy tilda quyidagi asarlar yaratilgan.

1. Qutadg’u bilig. Muallifi YUsuf Xos Hojib. Uning uch nuxasi bor. Namangan va Qohira nushalari arab yozuvida. U 1069 yilda Tabg’ach Bugraxonga atab yozilgan.

2. Devonu lug’atit turq Mahmud Qoshg’ariy tomonidan yozilgan

3. Hibbatul - haqoyiq; Ahmad YUgnakiy tomonidan yozilgan.

4. "Qissasul - anbiyo" 1310 yilda Raboti degan joyda Rabg’uziy tomonidan yaratilgan.

5. "O’g’uznoma" XIII asr yodgorgorligi hisoblansa-da, til jihatdan" Hibbat-ul haqoyiq"dan eyokiroqdir.

6. "Tafsir". Qur’on suralarining tarjimasi va izohidan iborat "Tafsir" ustida maxsus tadqiqot ishi olib borilgan.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan yirik namunalari quyidagilardir:

1. Kultigin bitiklari. Bu bitiktosh Eltarish o’g’li Bilga hoqonning inisi Kultigin sharafiga qo’yilgan.

2. Bilga hoqon bitiktoshi, Bu marmar Eltarish hoqonning o’g’li Kultiginning og’asi Bilga hokon sharafiga 735 yilda qo’yilgan.

3. Tunyuquq bitiktoshi. Bu yozuv yodgorligi ikkinchi turk hoqonligining asoschisi Eltarish hoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga, so’ngra Qapag’an hoqon sharafiga qo’yilgan deb taxmin qilingan edi. J.Klosson bitigning ayrim yerlariga tuzatish kiritib, yuqoridagi fikrlarning noto’g’riligini isbotladi va bitiktosh Qapag’on bilan Bilga hoqonlarnins sarkardasi Eletarini sharafiga qo’yilgan degan qarorga keldi.

4.Kulichur bitiktoshi-Bitiktoshni 1912 yilda polshalik professor V.Kotvich Mo'g'ilistonning Ulan-Bator yaqinidagi Ixe-Xushotu manzilidan topgan.

5. Moyunchur bitiktoshi. Buni fin olimi G.I.Ramstedt 1909 yilda SHimoliy Mug'ilistonda Selenga daryosi va SHineusu ko'liga yaqin yerdan topgan. Bitiktosh 759 yilda qo'yilgan deb taxmin kilinadi. Qadimgi turkiy tilning taxminan U-X asrlarda vujudga kelgan. Uyg'ur yozuvidagi yirik va asosiy namunalari quyidagilardir:

1. Xuastuanift. Buning uchta qulyozma nusxasi bor. Turfan yaqinidagi Ostona degan joydan keltirilgan nusxasi uyg'ur yozuvida yozilgan. Turfandan topilgan Berlin nusxasi va Ming Budda g'ori"dan topilgan London nusxasi moniy yozuvida yozilgan.London nusxasining faksimili Londonda 1910-1911 yillarda nashr qilingan.

2. SHahzodalar Qaqyanamqara va Papamqara haqida qissa.Qo'lyozma Parij milliy kutubxonasida bo'lib, uning transliteratsiya va fransuzcha tarjimasini 1914 yilda P.Pello nashr etgan.

3. Oltin yoruk- Bu asar asli sanskriktcha bo'lgan."Suvarnaprabhasa"ning xitoycha variantidan qilingan turkiy tarjimasi bo'lib, budda diniga oid sura, ya'ni muqaddas kitoblardan biridir. U X asrda Beshbaliqda yashagan Singku Seli Tutung qalamiga mansub.

4. Sekiz yukmaq .Ko'lyozma Turfandan topilgan. Nemis olimlari V.Bang, Gaben va turk olimi G.R.Rahmatiylar birgalikda 1934 yilda Berlinda "Turkish Turfantekst" seriyasida nashr etganlar.

5. Atavaka devi xaqida afsona.4 ta qo'lyozmasidan parchalar Turfandan topilgan va "Turkish Turfantekst"ning o'ninchi kitobida nashr etilgan.

6. Budda afsonalaridan parchalar. Berlinda " uygurika" (Uyg'uriyot) seriyasining uchinchi va to'rtinchi kitoblarida nashr etilgan.

2-ma'ruza. QADIMGI TURKIY TILNING FONETIKASI *(2* soat)

Dars rejasi:

1. Qadimga turkiy tilning fonetik xususiyatlari. Unli va undoshlar.
2. Singarmonizm. Tanglay uyg'unligi. Lab uyg'unligi.

Adabiyotlar

1. R.Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til. Tosh, O'qituvchi. 1982 y
2.A M SHerbak. Sravnitelnaya fonetika tyurkiyokix yazыkov.Leningrad. 1970 g.str.28-33

3. I.N.Kibsshavidze. Grafika i fonemnыy sostav yazыka orxono- yeniseyyokix podpisey. Sovetskaya turkologiya, 1972 N2 str.43

Ma’ruzaning to’la mazmuni

Tekshirish savollari.

I Qadimgi turkiy tilda unli va undoshlar haqida tushuncha berish.

2.Singormonizm nima ?

3 Polatal attraksiya ma’nosini tushuntiring.

4 Labial attraksiya nima?

Tayanch tushunchalar.

Palatal attraksiya(tanglay uyg’unligi) - so’zdagi tovushlarning bir-biriga va qo’shimchalarning o’zakka qatorda va qalin-ingichkalikda moslashuvi.

Labial attrakiya(lab uyg’unligi) - birinchi bo’g’indagi unliga keyingi bo’g’indagi unlining yoki o’zakdagi unliga qo’shimchadagi unlining lablaning jihatidan moslashishi.

YOzma yodgorliklarni o’rganing har qaysi turkiy tilning tarixiy fonetikasini yoritish uchun ham zarur. Turkiy tillar fonetikasiga oid mavjud ilmiy ishlar, turkiy tillarga oid yozma yodgorliklar tilining fonetikasini yoritishda muhim rol o’ynaydi. Turkiy tillarning tarixiy fonetikasini o’rganingda, avvalo, birlamchi cho’ziq unlilarning grafik na fonologik xususiyatlarini o’rganing kerak

U n l i lar.

Qadimgi turkiy tilda sakkizta unli fonema bo’lib, ular bir-biridan qatori, tor kengligi, lablaning-lablanmasligiga ko’ra farq qiladi. Bulardln - a, ы, o, u orqa qator a e, i, b, u old qator ushTilaridir. Keng uililar - a, e, o, o; tor unlilar - ы, i, u, U. shadimgi turkiy gilming unli fonemalari munosabatidagi bunday miqdoriy tenglik ularning sistemasini kub shaklida ifodalashga imkon beradi Kubning yuqori qismida tor unlilar, quyi qismida keng unlilar, old qismida old qator unlilari, orqasida orqa qator unlilari, o’ng tomonida lablangan va chap tomonida lablanmagan unlilar berildi.

Demak a – lablanmagan , keng va orqa qator; e - lablanmagan, keng yoki old qator unlidir. Bu unlining talaffuzi qozoq va qirg’iz hamda ko’pgina turkiy tillarda, o’ o’zbek tilining singarmonizmli lahja va simvollarida saqlangan.

Tatar va boshqird tillarida bu unli yanada orqaga siljishi va kengayishi natijasida :e ga aylangan.Hozirgi o’ o’zbek adabiy tilida bazi o’rinlarda oldingi tomom > ga yaqinlashgan, ayrim hollarda orqaga tomon kengayib > ga aylangan. Qadimgi turkiy tillardagi > unlisi esa hozir torayib, ko’pgina turkiy tillarda, jumladan o’zbek tilida birinchi bo’g’inda > ga aylangan.

Misollar:

Adag’ (oyoq) qagan (xoqon) anda (unda) ara (ora) qara (qora)

at (ot) et {et, gosht)

ab (ov) eb (uy)

ar (alda) er (er)

ash (osh) esh (esh)

san (son) sen (sen)

Ы unlisi lablanmagan, tor va orqa qator; I ham lablanmagan, tor, lekin old qator unlidir. Bu ikki unli fonema hozirgi o’zbek adabiy tilida va singarmonizmsiz lahja va shevalarda Ы ning oldinga siljishi natijasida konvergensiyaga uchragan, ya’ni bir qism;| (i) ga aylangan. Ammo o’zbek tilining singarmonizmli lahja va shevalarida hamda boshqa turkiy tillarda o’z holicha saqlangan.Qadimgi (turkiy tilda ham orqa qator Ы bilan old qator I ikki mustaqil fonemadir.

yig (yaxshi) уыg (yig’)

gik- (tik-) тык (tiq-)

yil (el) уыl (yil)

O unlisi lablangan, keng va orqa qator; b ham lablangan, keng, old qator unlidir. Qadimgi turkiy tilda orqa qator O bilan alohida ikki fonemadir.

ol (u) ol (ul)

ot (olov) ot (ut-)

oz (o’z) az (o’z, jon)

U unlisi lablangan, tor va orqa qator; u ham lablangan, tor, old qator unlidir. Bu unlilarning ham hozirgi holati O va o unlilariniki singaridir.Qadimgi turkiy tilda ham u va U alohida fonemadir.

tu- (tus-) TU (tuk)

ur- (ur-) Ur- (pufla)

uch (tugash joyi) Uch (3)

Hozirgi o unlisini qadimgi turkiy tilda a unlisi ifodalaydi. Masalan hozirgi bo:sh so'zi bosh tarzida talaffuz etiladi.

U n d o s h l a r

Qadimgi turkiy tilda 6, m, p lab undoshlari mavud. Sirg'aluvchi lab undoshi F yuq. O'rxun yozuvida V uchun maxus harf yo'q. Uniig o'rnida B ni bildiruvchi harf ishlatiladi. Uyg'ur yozuvida esa V uchun maxsus harf bor. B undoshi lablab, portlovchi, jarangli, shovqinli undosh bo'lib, so'z boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham uchraydi: bu, yabg'u (amir), sab (nutq).

M undoshi b dan uning talaffuzida burun bo'shlig'ining ishtiroki borligi va shovqinsizligi bilan farqlanadi. Demaq M lab-lab, nazal, portlovchi, sanor (shovqinsiz) undoshdir.

M undoshi b dan jarangsizligi bilan farq qiladi. Bu undosh xamma pozitsiyalarda uchraydi: Purum (Rum), Apa tarqan (unvon), tep (deb).

V undoshi, yuqorida aytilganideq faqat uyg'ur yodnomalarida bor. V faqat so'z o'rtasi va oxirida O'rxun yodnomalaridagi b o'rnida uchraydi: sav (nutk), sevinch (sevinch).

S til oldi-tish, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh fonema bo'lib, qalin (velyar) va ingichka (palatal) variantlariga ega.

3 undoshi S dan faqat jarangliligi bilan farq qiladi.

T undoshi S dan faqat portlovchililigi bilan farq qiladi.

D undoshi 3 dan faqat portlovchililigi bilan farq qilib, so'z o'rtasi va oxirida uchraydi. Bodun (xalq) od (zamon).

N undoshi D dan sonorligi bilan va nazalligi bilan farqlanadi. Demak bu tovush til oldi portlovchi, sonor, nazal, undosh bo'lib, so'z boshida kamroq va boshqa pozitsiyalarda ko'proq uchraydi. Neng (narsa), ana (ona), ben (men).

L undoshi N dan yon tovushligi va burnaki emasligi bilan farq qiladi. YON YOki lateral undosh deb o'pkadan chiqqan havoning tilning bir yoki ikki yonidan o'tishi natijasida hosil bo'lgan tovushga aytiladi.

R undoshi L dan yonsizligi va qaltiroqligi bilan farq qiladi. Kaltiroq yoki vibrant undosh deb til uchining titrashi natijasida vujudga kelgan tovushga aytiladi.Qadimgi turkiy tilda til oldi -tanglay jarangsiz undoshlardan CH bilan SH bor.

J bilan J esa yo'q. CH portlovchi, SH - sirg'aluvchi undosh: chab (shuhrat), shad (unvon).

Y til o'rta va til orqa variantlarga ega bo'lgan sirg'aluvchi sonor fonemadir.Yablaq (yomon), ay

(oy).

K (q) til o'rta (k) va chuqur til orqa (k) variantlariga ega bo'lgan portlovchi, jarangsiz, undosh fonemadir. G (G') fonemasi k (q) dan jarangliligi bilan farq qiladi.

Qadimgi turkiy tilda g' (g) so'z o'rtasida va oxirida uchraydi: Qag'an (hoqon), ogut (o'git).

Q tovushi g' (g) dan nazalligi va sonorligi (shovqinsizligi) bilan farq qiladi. Bu fonema ham til o'rta va chuqur til orqa variantlariga ega bo'lib, so'z o'rtasida va oxirida uchraydi: yangы (yangi), ang (ong).

Qadimgi turkiy tilda bo'g'iz undosh h yo'q.

Singarmonizm.

Singarmonizm deb so'zdagi tovushlarning bir-biriga hamda o'zakka qo'shimchalarning talaffuz jihatdan uyg'unlashishiga aytiladi. Qadimgi turkiy tilda singarmonizmning ikki qonuni mavjudligi aniq: 1) *tanglay uyg'unligi yoki palatal attraksiya;* 2) *lab uyg'unligi yoki labial attraksiya*

Tanglay uyg'unligi - so'zdagi tovushlarning bir-biriga va qo'shimchalarning o'zakka qatorda va qalin-ingichkalikda moslashuvidir:

qag'anqa (hoqonga)	kimke (kimga)
ilgeru (oldinga)	og'o'zg'aru (o'g'uzga)
barig' (borish)	bilig (bilim)

Lab uyg'unligi - biriichi bo'g'indagi unliga keyingi bo'g'indagi unlining yoki o'zakdagi unliga qo'shimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvidir.

ishig (ishni)	kUchUg (kuchni)
inim (ukam)	kozUm (ko'zim)
elemiz (davlatimiz)	sUmUz (lashkarimiz)

Qadimgi turkiy tilda nutqning tovushdan boshqa fonetik bo'laklari, urg'u va intonatsiya hozirgi turkiy tillarnikidek o'zgacha bo'lganligini ko'rsatuvchi dalillar yo'q.

Singarmonizm hodisasi xozirgi bir guruh turkiy tillarda to'la aks etgan bo'lsada, hozirgi bir guruh turkiy tillarda kuchsizroq xususiyatga ega. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni mavjudligiii birinchi bo'lib XI asrdayoq M.Qoshg'ariy tasdiqlagan. U turkiy so'zlarning o'zak harakteriga qarab qattiq o'zakli so'zlarga kattiq affikslar, yumshoq o'zakli so'zlarga yumshoq affikslar qo'shilishi haqida so'zlagan..

U r g ' u

Turkiy tillarda tarixan urg’u qanday xolagga ega ekanligi. yechilmagan chigal masadalardan biri hisoblanadi. Tarixiy yozma manbalarda urg’u xaqida biror ma’lumot ham mavjud emas. Turkiy tillarda singarmonizm qonuni so’zlarning talaffuzida boshqaruvchi vazifani bajaradi, urg’u bilan singarmonizm qonuni o’rtasidaga munosabat xanuz xam ochilmagan, turli tillarda singarmonizm qonuni tarixan urg’u bilan moslashnb qolgan. Turkiy so’zlarda bosh urg’u qaysi bo’g’inga tushishi masalasida ham turlicha qarashlar uchraydi, ikkinchi darajali urg’u turkiy so’zlarda qaysi pozitsiyada uchrashi haqida qam turlicha qarashlar mavjud.

SHuningdek , turkiy tillarda urg’uning tarixan qaysi turlari qo’llanilishi masalalari ham to’la aniklanmagan. SHunga ko’ra, turkolog olimlar tomonidan turkiy so’zlarning qaysi pozitsiyasiga qanday urg’u tushganligi haqida turlicha fikrlar aytilgan. Radlov, Boduen, de Kurtene Korsh singari turkologlar turkiy tillarda urg’u so’zlarning bosh bo’g’iniga tushganligini ta’kidlashsa, Sevortyan, SHcherbak Baskakov kabi olimlar urg’uni so’zlarning oxirgi bo’g’iniga tushishini ta’kidlaydilar.

3-ma’ruza QADIMGI TURKIY TILNING GRAFIKASI (2 soat)

Dars rejasi:

1. Kadimiy turkiy til grafikasi xususiyatlari.
2. Turkiy bitiglarda qullangan qadimgi yozuvlar. O’rxun, uyg’ur, sug’diy, moniy, biraxmiy yozuvlari va ularning o’ziga xos jihatlari.

Adabiyotlar:

1. R. Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til. T.: O’qituvchi. 1982y. 12-23 betlar.
2. U.Uvatov. Ibn Arabshax i yego sochineniye "Adjaib al-maxzur fi Navoiy Timur", AKD, Tashkent, 1974.
3. I.V.Karmushin. K osnovnыm ponyatiyam tyurkskoy runicheskoy poleografii. Sovetskaya tyurkologiya, 1975, N2.

Ma’ruzaning to’la mazmuni.

Tekshirish savollari.

1. Grafika nima?
2. Qadimgi turkiy yozuvlari haqida ma’lumot

bering.

3. O’rxun va uyg’ur yozuvlaridagi harflar, ularning shakllari, tovush mazmuni va qo’llanishi hakida tushuntiring.

Tayanch tushunchalar.

So’g’d yozuvini (hozirgi tojiklarning avlodlari)so’g’dlar qo’llagan.

Monaviy yozuvini bobillik Moniy (217-273 milod) asos solgan moniy diniga mansub kohinlar qo’llagan.

Birahmiy - hind yozuvlari.

O’rxun va uyg’ur yozuvlari turkiy xalqlarga mansub.

O’rxun yozuvi.

O’rxun yozuvi turkshunoslikka va yozuv tarixiga oid asarlarda " O’rxun-Enisey yozuvi", "Enisey- O’rxun yozuvi", "Sibir yozuvi", ko’proq "turkiy run(a) yozuvi" deb yuritiladi. Bunga O’rxun harflarining qadimgi gsrman xalqlariga mansub Run(e) deb ataluvchi yozuvga tashqi jihatdan bir oz o’xshashligi sabab bo’lgan. Bu yozuvning SHarqda "Dulbarchin" nomi bilan yuritilgani haqida mashhur filolog ibn Arabshoh (1389-1450) o’zining "Ajoyib-l-makdur fi navoyibi Taymur" (Tsmur falokatlarida qismatning kieikliklari) nomli asarida ma’lumot berada.

"Xitoyda ulariing (turklarning - A.R.) "dulbarjin" deb ataladigap yozuvi bor. Ko’rdim , harf qirq bitta. Ko’pligining sababi shundaki, ular [tovushlarning] qalin va ingichkalarini, shuningdeq ayirgichlarni harf hisoblaydilar, natijada ko’shimchalar va qo’shimcha harflar paydo bo’ladi" (Qohira xalq kutubxonasidagi 3543-qo’lyozma, var.286a). Ammo ibn Arabshoh kitobida alifboni keltirmagan.

Hamma yozuvlarda bo’lganidek , dulbarchin (O’rxun-enisey) yozuvi ham zamoni va makoni bilan bog’liq bo’lgan ayrim shakliy farqlar tufayli O’rxun, turfan va yenisey variantlariga ega. Bularning eng qadimiysi O’rxun variantidir.

O’rxun yozuvida unli tovushlarni bildiradigan to’rtta, yenisey bitiglarida esa beshta harf bor.

/. *A harfi*. Bu harf ikki uchi ilgakli tayoqchadan iborat. Ilgakning biri o’ngga, biri chapga qaragan. Qaysi birining o’ngga qaragan bo’lishining ahamiyati yo’k. SHuning uchun bu harf ikki ko’rinishga ega. Biroq ustki ilgak o’ngga, pastki ilgak chapga qaragan bo’lib, bu O’rxun yodnomalariga xos. Ikkinchisida aksincha - ustki ilgak chapga va pastki ilgak o’ngga qaragan:. yenisey bitiglarida har ikkala ko’rinishi ham bor. Bu harf

til oldi E va til orqa *a* tonushini bildiradi. *A* yoki e ekanligini undosh tovushlarni ifodalovchi harflardan bilish mumkin .A harflari so'z boshida ishlatilmaydi. Masalan, ata so'zida ikkita harf bo'lib, birinchi t tovushini, ikkinchisi a tovushini bildiruvchi harf bo'ladi.

Boshqa yozuvdagi yodnomalarni ilmiy ravishda o'qishni ta'minlash maqsadida transliteratsiya va transkripsiyadan foydalaniladi. Transliteratsiya (harf ag'darish)da bitigdagi harflar, transkripsiyada esa tovush yoki fonemalar maxsus belgilar bilan aniq beriladi. Demaq transliteratsiya yozuvni aniq aks ettirsa, transkripsiya talaffuzni aniq aks ettiradi.

A harfining transliteratsiyasi uchun ' belgisi kabul qilinadi.

2. I harfi, Bu harf bir ilgakli tayokchadan iborat bo'lib, ilgak yuqoriga va o'ng tomonga qaragan: Agar ilgak chapga qaragan bo'lib yuqorida bo'lsa, 1, l ni bildiruichi harf, pastda bo'lsa, qalin *l* tovushini anglatuvchi harf bo'ladi. I harfi til oldi *i* va til orqa *ы* tovushini bildiradi va *a* harfidan farq qilib, so'z boshida ham ishlatiladi. Bu harf transliteratsiyada belgisi bilan ifodalanadi.

Lablanmagan unlilar uchun qo'llanadigan bu ikki harf tovushlarning qatordagi farqini aks ettirmayli, faqat tor-kengligini ko'rsatadi. Ikki ilgakli *a* harfi keng unlilarni va bir ilgakli i harfi tor unlilarini anglatadi.

3. O'qu h*arfi.* Bu harf uchi o'ngga qaragan burchak shakliga > ega bo'lib, ko'rinishlariga ham ega. Uku harfi lablangan til orqa *o* V *ni u* unlilarini bildiradi. Bu harf transliteratsiyada V belgisi bilan ifodalanadi.

4.Uku harfi. Bu harf bir butun va ikki yarim tayoqchadan tuzilib, yarim tayoqchalar burchak hosil kilgan holda butun tayoqchaning o'ng tomoniga, yariidan yuqorisiga quyidagi ilgaklarda birlashtiriladi:

KU1[1]. *Uku* harfi lablangan til oldi o va V unlilarini bildiradi. Bu transliteratsiyada belgisi bilan ifodalanadi.

5. E harfi. Bu harf O'rxun yodgorliklarida yuq. Buning shakli ayqashgan yoki yondashgan ikki yoy yoki burchakdan iborat. Bu harf *U* tovushini bildiradi.

Quyidagi harflar lab undoshlarini bildiradi:

/. *Pi harfi.* Bu harf i harfidan ilgagining chap tomonga qaraganligi bilan farqlanadi] va *a* fonemasini anglatadi. Pi harfi transkripsiyada ham transliteratsiyada ham, *p* harfi bilan ifodalanadi. Harf faqat muayyan bir fonemani bildirganda transkripsiya bilan

transli'geratsiya belgisi bir xil bo'ladi. P tovushining oldiga lablangan unli qo'shib talaffuz qilinadigan harf ham bor. ***O'p*** *harfi* bo'lib, B K shakllariga ega. Bu transliteratsiyada *p* harfi bilan beriladi.

2. A6 harfi. Bu harfning asosiy ko'rinishi shaklida bo'lib,enisey yodnomalarida tik va yotiq (6) shakllariga ega. Ab harfi *b* fonemasining qalin variantini bildiradi. Undoshlarning qalin variantini bildiruvchi harflarga esa ikki raqami qo'yib ifodalanadi. SHuning uchun ab harfi *6* fonemasining ingichka variantini anglatadi. CHap tomondagi birinchi shakl yenisey yodnomalarida *e* unlisini,O'rxun yodnomalarida esa faqat mazkur undoshni ifodalaydi. yenisey yodnomalarida eb harfining yana boshqa ko'rinishlari bor. Eb harfi transliteratsiyada b bilan beriladi.

4. Mi harfi. Bu harf *m* fonemasini anglatadi. Transkripsiyada ham, transliteratsiyada ham m harfi bilan ifodalanadi.

O'rxun yodnomalarida ad'yidagi harflar til oldi-tish undoshlarini bildiradi:

1. At harfi, Bu harf *t* fonemasining qalin variantini bildiradi. At harfi transliteratsiyada *t* harfi bilan ko'rsatiladi.

2. *Et harfi.* Bu harf *t* fonemasining ingichka variantini anglatadi va h h shakllarga ega. Agar bu harfni yon tomonga aylantirilsa *aq* harfi, yuqorisi pastga ag'darilsa *uku* harfi hosil bo'ladi.*Eg* harfi *t* fonemasining ingichka variantini bildiradi.Transliteratsiyada *t* harfi bilan ko'rsatiladi.

3. Ad harfi. Bu harf d fonemasining qalin variantini bildiradi va shakliga ega. yenisey yodnomalarida ham shakliga ham ega. Transliteratsiyada *d* bilan beriladi.

4. Ed harfi – Bu harf *d* fonemasining ingichka variantini anglatadi va X shakliga ega. yenisey yodnomalarda boshqa xil shakli ham bor.Transliteratsiyada d bilan ko'rsatiladi.

5. As harfi. Bu harf *s* fonemasining qalin variantini, ba'zan *sh* ni bildiradi.Transliteratsiyada *s* bilan beriladi.

6.Es harfi.Bu harf asosan *s*. fonemasining ingichka variantini anglatadi.

7.Zi harfi. Bu harf *z* fonemasini bildiradi va shakllarga ega. Transkripsiyada ham, transliteratsiyada ham *z* bilan beriladi.

8. *AN harfi*- Bu harf n fonemasining qalin variantini anglatadi va)...] shakliga ega. yenisey yodnomalarida o'ngga ochilgan ko'rinishi ham bor. Transliteratsiyada n bilan ko'rsatiladi.

9. En harfi. Bu harf n fonemasining ingichka variantini bildiradi va shakllarga ega.

Transliteratsiyada *n h*arfi bilan ifodalanadi.

*10.Ar harfi.*Bu harf *r* fonemasining qalin variantini ifodalaydi va shakllarga ega.. Ar harfi yon tomonga ag'darilsa

Uku harfi, ost-ust holatda *aq* transliteratsiyada *r* bilan yoziladi.

Uyg'ur yozuvi.

Hozir uyg'ur yozuvi nomi bilan mashhur bo'lgan yozuvni Maxmud Qoshg'ariy turk yozuvi deb atab, uning alifbosini quyidagicha tafsif qiladi:

"Turk tillarida ishlatidadigan harflarning hammasi o'n sakkizta asosiy (o'zak) harfdan iboratdir. Undan tashqari yettita tarmoq harf bo'lib, ular yozuvda aks etmagan, biroq (ba'zi) so'zlar ulardan xoli bo'lmaydi. Bular jarangsiz bo(p) va boshqalar..."

Uyg'ur yozuvi, so'g'd yozuvi va so'g'd yozuvi oromiy yozuvidan paydo bo'lganligi uchun, u O'rxun yozuviga nisbatan turkiy tillarnipg fonetik xususiyatini o'zida yaxshi aks ettirmagan. uyg'ur yozuvi o'ngdan chapga va harflar bir-biriga ikki yoki bir yondosh qo'shib yoziladi. SHuning uchun har bir harf uch elementdan iborat. Birinchisi asosiy element bo'lib, bu harflarning hamma ko'rinishlarida saqlanadi va tovushni shu element ifodalaydi. Ikkinchisi, ulagich chiziqchalardan iborat bo'lib, bular harflarni harflarga qo'shish paytida paydo bo'ladi. Uchinchisi, tugallovchi chiziq bo'lib, bu harfning alohida yoki oxirgi ko'rinishida o'zak negiz va qo'shimchalar oxirida paydo bo'ladi.

4 ma'ruza.

QADIMGI TURKIY TIL MORFOLOGIYASI (4 soat)

Dars rejasi:

1. Qadimgi turkiy tilniig umummorfologik xususiyatlari.
2. Ot turkumiga oid xususiyatlar. Ot yasovchi affikslar. Ko'plikka xos xususiyatlar. Egalik affikslariga oid xususiyatlar. Kelishik xususiyatlari..
3. Sifat turkumiga xos xususiyatlar. Son turkumiga xos xususiyatlar. Olmosh turkumiga xos xususiyatlar.
4. Fe'l turkumiga xos xususiyatlar. Fe'l yasovchilar. Fe'lning daraja formalari. Fe'lning buyruq va istak formalari. Sifatdosh va ravishdosh formalari. Fe'lning zamon formalari. Fe'lning shart formasi.
5. Ravish turkumiga oid xususiyatlar. YOrdamchi so'zlar doirasidagi xususiyatlar.

Adabiyotlar:

1. G’.Abdurahmonov, A.Rustamov. Kadimiy turkiy til. T.: O’qituvchi.1982 y. 25-41 betlar.
2. A.N.Kononov, Pokazateli sobiratelnosti-mnojestvennosti v tyurkyokix yazыkax Sravnitelno-istoricheyokiy etyud, izd-vo "Nauka",Len otd., Leningrad, 1969, str. 32
3. G.Aydarov. YAzыk orxonyokix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti VIII veka. str. 155-210.

Ma’ruzaning to’la mazmuni.

Tekshirish savolllari.

1. Hozirgi o’zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi nimalardan iborat?
2. Qadimgi turkiy tilda so’z turkumlari va so’z yasovchi qo’shimchalarni aytib bering.

Tayanch tushunchalar.

Agglyutinativ tillar - so’z formalari so’zning negiziga maxsus qo’shimchalarii muayyan tartibda qo’shish yo’li bilan yasaladigan tillar.

Qadimgi turkiy til morfologik tip jihatidan turkiy tillar singari agglyutinativdir. So’z formalari so’zning negiziga maxsus qo’shimchalarni muayyan tartibda qo’shish yo’li bilan yasaladigan tillar agglyutinativ tillar deb ataladi. Ammo qadimgi turkiy tildagi morfemalar hozirgi o’zbek adabiy tili va singarmonizmni yuqotgan shevalardan singarmonistik variantlarining borligi bilan farqlanadi.Lekin bu sof morfologik farq bo’lmay,fonetik farqdir.

Hozirgi o’zbek adabiy tili morfologiyasidan qadimgi turkiy til morfologiyasining umumiy farqi quyidagilardan iborat:

1.Hozirgi zamon morfemalari qadimgi turkiy tildagiga nisbatan miqdoran ko’p va mazmunan boy.

2..Hozirgi o’zbek tilida yo’q bo’lgan yoki alohida element sifatida o’qilmaydigan morfemalar ham bor.

3. So’z va forma yasovchi chet til morfemalari yuq.

4. Murakkab morfemalar juda kam.

Ot.

Ko’plik. Bu davrda ko’plikning asosiy va ko’p ko’llanadigan ko’rsatkichi *-lar* ko’shimchasi bo’lib, u qalin va ingichka variantlarga ega.

qalin negizga -lar, ingichka negizga -ler varianti qo'llaniladi: kunchuy (xonim) - kunchuylar (xonimlar) beg (bek) - bekler (beklar)

Bu davrda n bilan tugagan ba'zi so'zlarning ko'pligi shu n ni *t* ga aylantirib yasalganini ko'rish mumkin. eren (jangchi) - eret (jangchilar)

Eslatma: Birlik maxsus affiks bilan ifodalanmaydi.

Kelishik qadimgi turkiy tilda *7* ta kelishik bo'lgan ular quyidagilar:

1. Bosh kelishigi.

2. Qaratqich kelishigi. ko'shimchasi -nыq -niq; -kuq; -nUq; -naq; -neq -ыq; -iq; -uq; -Uq. Masalan: bayырkunuq, burxanlarnaq

3. Tushum kelishigi. qo'shimchasi -g'; -g; -ыg'; -ig; -ug'; -Ug; -ag'; - eg; -ы; -i; -n; -ni; -nы. Masalan, sU (lashkar) - sUg (lashkarni); tash (tosh) - tashыg' (toshni).

4. Vosita kelishigi. qo'shimchasi -n; -ын; -in; -Un; -an; -en. U ish harakatining sodir bo'lgan o'rnini, boshlaning o'onini, birgalik vosita ma'nolarini ifodalaydi. Masalan, qolqaqын eshidip – til bilan so'zlab:

5. Jo'nalish kelishigi. qo'shimchasi -g'aru; -geru; -qaru; -kerU; -g'ar; -g'or; -ru; -rU; -ra; -re; -qa; -ke; -g'a; -ge; -ya; -ye; -a; -e. Masalan, og'uzg'aru - og'izga; biziqeru '- bizga, uyg'urg'aru, maqar,saqar, maru, beru, ichre, tag'a.

6. O'rin-payt kelishigi.-da; -de; -ta; -te. Masalan, tayg'an kelte tiriltim (askar to'pladim).

7. CHikish kelishigi. CHiqish ko'shimchasi -dын; -din; -tын; -tin -dan; -den; -tan; -ten. Qadimgi turkiy tilning oxirgi davrlariga xos yodnomalarda uchraydi. Eldin, elke, balыqdын, balыqqa, ulushdын, ulushqa.

Otlarning yasalishi.

Qadimgi turkiy tilda ot, otlashgan so'z yoki sifatdan ot yasovchi quyidagi qo'shimchalar bor:

1. -chы; -chi. qo'shimchasi. Bu ko'shimcha kasb va biror yumush egasini bildiruvchi ot yasaydi. Masalan, bediz (naqsh) - bedizchi (nakqosh); yog'(aza) - yog'chы(azani boshqaruvchi).

2. -lыq; -lik -luq; -lUk qo'shimchasi.Bu ko'shimcha mavhumlik makon va tanovar anglatadi. Masalan, ach (och) - achlыq (ochlik); yemish (meva) - yemishlik (mevazor).

3. -an; -en qo'shimchasi yetuklikni bildiradi va -an varianti qalin negizga, -en zsa ingichkasiga ko'shiladi: er(er) – eren (mard,jangchi); og'ul(bola) – og'lan (ug'il bola, yigit).

4. -qan (-xan); -kzn qo’shimchasi. Bu qo’shimcha laqab, unvon, geografik va astronomik nomlar tarkibida uchraydi. Masalan,tengri (tangri) - tengriken (xudojuy).

5. -qaq; -kek -g’aq -gek qo’shimchasi. Bu qo’shimcha otga qo’shilganda, maxdudliq chegaralanganlik va fe’lga qo’shilganda qurol,.vosita yoki mubolag’ani bildiradi. Masalan,qach(qoch) –qachqaq (qochoq, qochqoq)

6.-qu:-KU;-g’u; -gU qo’shimchasi.Mavhumlik ma’nosini bildiradi.Inch (tinch) – inchkU (tinchlik)

7. -tam; -tem; -dam; -dem qo’shimchasi. Otdan ot yoki sifat yasaydi. Er(er) - erdem (odob, yetuklik).

8. -tash; -tesh; -dash; -desh qo’shimchasi. Bu qo’pshmcha hozirgi o’zbek tilidagi -dosh ning o’zidir. qa(idish) - kadash(tug’ishgan).

9. -sh qo’shimchasi. Bag’(bog’, boylam) - bag’ыsh (bo’g’in)

10. -suq –sUk qo’shimchasi. Bag’ir(jigar) - bag’ырsuq(ichak)

11. -sung; -sUsh qo’shimchasi. Bu qo’shimcha –suq , -sUk qo’shimchsi bilan bir manbaga ega.. CHunki turkiy tillarda q(k)-sh mosligi bor. Suv(suv) - suvsush(ayron)

12.-m. al(ol) - alым(karz- qarz berganga nisbatan)

13. -q; -k *-G’; -g;* -ыq; -ik -uq -Uq yaz(yomonlik qil)

4. -qын; -G’ЫN; -kin; -G’IN; -qun; -g’un; -kUn; -gUn. qach(qoch) - qachg’ын(qochqin).

Sifat.

- Predmetning rangini, tusini bildiradi. Ala, aq, qara, yeshыl.yagыz - kulrang.Predmetning xususiyatini: arыg’-toza, sog’ug’-sovuq

Predmetniig sifatini va holatini bildirada: bilgel -bilimli, quzg’un -botir.

Qiyosiy daraja -raq -rek: yigrek (yaxshirok), artukrak(ortiqroq)

Intensiv forma:

aqыg’ – aqig’ yablaq - juda yomon; aqыg’ edir - juda yaxshi.

ked; ket, ked qoqul tegUrUp tыleqler - juda o’tinchli ko’ngil bilan tilanglar.

tO’z - tO’z koringsiz - juda yuqori, yig - yig UstUnki - eng yuqorisi.

ertingU - ertingU ag’ыr - o’ta og’ir; choq - choq yalыnlыg’ - juda otashli

Sifatning yasalishi.

1. -lыg’, -lig, -lug’, -lug. Bu qo’shimchalar otdan sifat yasaydi va egalik hamda nisbatni bildiradi. Ekin(ekin) - ekinlig(ekinli)

2. -sыz, -siz, -suz, -sUz. Bu qo'shimcha otdan egasizlik va yo'qlik bildiruvchi sifat yasaydi. Bilig(bilim) - biligsiz(bilimsiz).

3. -saq –sek. Bu istak bildiruvchi fe'l yasovchi -sa,-se hamda fe'ldan sifat va ot yasovchi –q-k qo'shimchasining birlashuvidan hosil bo'lgan. Bag'ыr(jigar) - bag'irsaq(ko'ngilchan).

4. -sыG', -sig. Bu ko'shimcha otdan sifat yasaydi va o'xshashlik ma'nosini bildiradi.qul(qul) - qulsыg'(kulsimon); beg(bek) - begsig(beksimon) .

5. -qы,-ki;(-g'ы,-ga).Bu qo'shimcha ot, ravish va olmoshdan nisbiy sifat yasaydi. Jarangsia undosh bilan tugagan qalin negizga -K1, ingichkasiga -ki; jarangli undosh bilan tugagan qalin negizga -gы, ingichka negizga -ga qo'shiladi.

ay(oy)-ayqы(oyga oid);yay(yoz)- yaygы(yozgi); ichre(ichsa) –ichreki (ichidagi).

6. -z qo'shimchasi. Bu qo'shimcha fe'ldan sifat yasaydi. u-(qila bil) - uz(mohir).

7. -l qo'shimchasi. Bu qo'shimcha yashыl(yashil), qыzыl(qizil), tUkel(tugal) singari suvlar tarkibida uchraydi.

-raq formasi. Bu davr yodnomalarida hozirgi o'zbek adabiy tilidagi -roq kalin (-rak) va iigichka (-rek) variantlariga ega va u sifatning orttirma darajasini bildiradi.

YIG(yaxshi) - YIGrEK(eng yaxshi)

artuq(ortiq) - artukraq(eng ortiq)

Son

YOdnomalarla sanokka oid bir xususiyat bor bo'lib, u o'ndan yuqori birligi bor ikki xonali sonlarga taalluqlidir. Bunda birlik oldin aytilib, undan so'ng shu songa oid o'nlik emas, o'ndan keyingi o'nlik aytiladi. Bes yigirmi(o'n besh), altы yigirmi(o'n olti), yeti yigirmi(o'n yetti), bir otuz (yigirma bir), uch otuz(yigirma uch), altы otuz(yigirma olti).

O'nlik oldin aytilganda esa undan so'ng birlikdan oldin artuqi so'zi orttiriladi: otuz artukы to'rt yashыma (o'ttiz to'rt yoshida).

Hozirgi ikkilangan undoshli sonlarda qadimgi turkiy tilda bir undosh bo'lgan. iki (ikki), yeti(etti), sekiz(sakkiz), toqo'z(to'qqiz), oto'z{o'ttiz), elig(ellik). Yigirma soni yigirmi, sakson sekiz on, to'qson toko'z on, ming bing shakliga ham ega. O'n ming tuman soni orqali ham ifodalanadi.

Tartib son qo'shimchasi fonetik variantlarga ega va hozirgi oxiridagi i unlisi yo'q: uchunch (uchinchi), tortunch(to'rtinchi), besinch (beshinchi). Birinchi o'rnida bashtыnkы yoki ilki va ikkinchi o'rnida ikiti ishlatiladi.

Jamlov qo’shimchasi -atu, *egu* shakliga ega: altы(olti) -altaru(oltov);

uch(uch) - Uchegu(uchov).

Taqsim formasi -(r)-ar, -(r)-er -qo’shimchasi bilan yasaladi:

bir(bir) - birer(bittzdan)

uch(uch) - ucher(uchtadan)

altы(olti) - altырar(oltitadan)

iki(ikki) - ikirer(ikkitadan).

Olmosh

Qadimgi turkiy tildagi olmoshlar quyidagi xususiyatlarga a ga:

1. O’zlik olmoshi, o z dan tashqari, kentu(kendu) so’zi bilan ham ifodalanadi. Oz aslida ot bo’lib, u "nafs" va "jon" ma’nolarida ishlatilgan.

Oz olmoshi aniqlovchi vazifasida kelib, aniqlanayotgan , predmetning ma’lum shaxsga qarashliligini, xosligini ta’kidlab ko’rsatadi. Masalan, Iusuf kozыge baqdы, oz yo’zini kordi.

2.Kishilik olmoshi.Kishilik olmoshlari qadimgi turkiy tilda quyidagicha ko’rinishda bo’ladi:

I shaxs birligi - men

II shaxs birligi - sen

III shaxs birligi - ul

I shaxs kunlik - biz, bizlar

II shaxs ko’pliq Sыz formasi ba’zan II shaxs birlik ma’nosida qo’llanib tinglovchiga nisbatan hurmat bildiradi.

III shaxs ko’pligi - ular,alar, anlar. XSH-XIV asrlarda asosan ular, anlar formalari qo’llangan. XV asr va undan keyingi davrda alar formasi qo’llangan.

3.Ko’rsatish olmoshlari. qadimgi turkiy tilda ko’rsatish olmoshlarining bu, ul, u, ushbu, oshud, oshal, shul kabi formalari keng qo’llanilgan bo’lib, ayrim yodgorliklarda ush, tu, osha, oshu, ene,mene, hamul,hamin kabi formalari ham uchraydi. Bu formalar etimologik jihatdan ham ma’no va funksiyasi jihatdan ham bir-birlari bilan o’zaro borliq va bir-birlarini to’ldiradi.

4. So’roq olmoshi.qadimgi turkiy tilda qo’llangan so’roq olmoshlari katta gruppani tashkil etib,tuzilishi jihatdan tub va tarkibli so’zlardan iborat. So’roq olmoshi nima o’rnida

ne, qaysi o’rnida qan(y)u, kayu va qanday o’rnida neluk ishlatiladi.

5.Birgalik olmoshlari. qadimgi turkiy tilda birgalik olmoshlarining barcha, barы, ba’zi formalari keng qo’llanilgan.Hamma birgalik olmoshi o’rnida qamug’ va alqu iste’mol qilinadi.

6. Belgilash olmoshlari. qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi o’zbek tilidagi kabi belgilash olmoshlarining sodda va murakkab formalari iste’molda bo’lgan.Sodda formasi har, murakkab formalari esa har so’ziga so’roq olmoshlaridan birini qo’yish yo’li bilan hosil qilingan.Har kim,har nime, har kaysы,har qachon, har nege,har nechuk,har qayan,har belgilash olmoshi o’rnida sayu ishlatiladi. qop-qop yarы ermish -hamma dushman edi.

7.Gumon olmoshi. qadimgi turkiy tilda gumon olmoshlarining quyidagi formalari qo’llangan: kimse,nimerse, nerse, birev, biregU.Bu olmoshlar qadimgi yodgorliklar tili uchun harakterli emas. Kimse, nimerse,yoki narsa so’zini qo’shish yo’li bilan hosil bo’ladi.hech kim, kimse, hech kim erse, hech nimerse, hech nerse, hech qaysы kabi. Inkor olmoshi hech o’rnida neng iste’mol qilinadi.

Ravish

Qadimgi turkiy tilda hozirgi o’zbek adabiy tilida yo’q bo’lgan ravishlar bor. Masalan otru (so’ngra), kisre(keyin), kerU(orqaga), ongre(oldinga, oldinda) kabi ravishlar shular jumlasidandir. . Ba’zi ravishlar shaklan va mazmunan o’zgargan. Masalan qadimiy qop (butunlay) xozir xo’p shaklida va ma’nosi ham bir oz toraygan. Endi emti shakliga. quyi kudы shakliga ega.

Qadimgi turkiy tilda ravishlar boshqa so’z turkumlariga nisbatan ko’p emas. SHunday bo’lsa-da, bir qator ravishlarni uchratish mumkin. Mavjud ravishlarni ham tub va yasama negizlarga ajratish mumkin.|

Tub negizlarga teg(o’xshash), oq(erta), yana(yana), emti(endi), ashnu(avval) kabi ravishlarni kiritish mumkin.

YAsama ravishlar quyidagi affiksdar orqali *hosil* kilinadi:

1. -dы: -di; -tы; -ti qo’shimchasi. katыg(qatti:q} qatыg’dы(qattiq kilib) edgU(yaxshi) - edgUti(yaxshilab)

2. -la; -l:e qo’shimchasi.

tUn(tun) - tUnle(tunda)

chьın(chin) - chьınla(chindan)

Z.-cha; -che qo’shimchasi.

azraq(juda oz) - azraqcha(juda oz holda)

tUrk(turk) - tUrkche(turkchasiga)

4. -ra; -re qo’shimchasi.

as(ost) - asra(ostda)

ich(ich) - ichrы(ichda)

Bu qo’shimchalarning ham yuqorilardagidek qaysi variantlarda qo’llanishi negizning ingichkaligi va lablangan hamda lablanmaganligiga bog’liq.

Bu kelishik qo’shimchasi -qaru; -kerU dan vujudga kelgan. Bundan *tashqari* qadimgi turkiy tilda, xuddi hozirgi turkiy tillarda bo’lgani singari, zamon va makon xamda vosita keliishigi qo’shimchalari ravish yasashi mumkin.

Ravishlarning quyidagi ma’no turlari qayd qilinadi:

1. Payt raviishari.Bukun, kuntUz, emti, kUntemek(har kuni).

2.O’ rin ravishlari. Tashtыrtы (tashqari), -isre(ichida), biraye(o’ngda), уыraya(chapda)

3. Holat ravishlari. Yashuruqы (yashirish), arыты(to’la), yaqып timii (asta-sekin).

4. Daraja-mikdor ravishi. Muncha, ancha.

Fe’l

Fe’l yasovchilar.Qadimgi turkiy tillarda quyidagi fe’l yasovchi qo’shimchalar bor:

1. -o; -**a** qo’shimchasi. Ot va sifatdan fe’l yasaydi.

at(ot) - ata(ata)

tO’z(to’g’ri) - tO’za(to’g’irlamoq)

2. -l*a*; -la qo’shimchasi. Otdan fe’l yasaydi, yay(yoz) - yayla.(yozni o’tkaz)

sU (lashkar) – sUla (lashkar tort)

3. -lan; -len qo’shimchasi. Ot va sifatdan fe’l yasaydi. qan(xon)- qanlan(xonlik bo’l); qatыg’(qattiq) – qatыg’lan (chiniq) .

4.-*a*d; -ad qo’shimchasi.Bu qo’shimchadagi d o’rnida tish orqa z ham bo’lishi mumkin.Otdan fe’l yasaydi.

qul(qul) - qulad(qulga aylan); kung(cho’ri) - kunged(cho’riga aylan).

5. (-ы)-q -(i)k qo’shimchasi. Otdan fe’l yasaydi. tash(tashqari) - tashыq(tanshqari chiq)

ich(ichkari) - ichik(ichkari kir)

6.-sыra, -sire qo’shim chasi .Otdan fe’l yasaydi va “ –sizlan” ma’nosida ishlatiladi .qag’an (xoqon)- qag’ansыra (xonsiz bo’l) el(davlat) - elsire(davlatsizlan)

7. -sa, -se qo’shimchasi. Ot va fe’ldan fel yasab, istak bidiradi. eg(go’sht) - etse(go’shtsiradi)

ach(och) – achsa (ochmokli bo’ldi).

Daraja formalari. Qadimgi turkiy tilda quyidagi orttirma daraja qo’shimchalari bor:

1. -z qo’shimchasi.. Negiz undosh bilan tugaganda,oldida asosan tor unli paydo bo’ladi:

tut(tut) - tutuz(tutqiz)

2.-r qo’shimchasi. Negiz ukdosh bilan tugaganda, oldida asosan tor, ba’zan keng unli paydo bo’ladi: yash(yashirin) - yashur(yashir) ol(o’l) - olur(o’ldir).

3.-m qo’shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo bo’ladi. Oqы (o’qi)- oqыt (o’qit) kUche(zo’rla) - kUchet(zo’rlat) .

4. -tur, -tUr, -dur, -dUr qo’shimchasi. Aq (oq) – aqtur (oqiz) bin (min) – bintUr (mindir).

5. -qur, -kUr, -g’ur, -gUr qo’shimchasi. az (adash) azgur (adashtur) tir(yasha) - tirgUr(yashat)

6. -l, -n, -q(-k) o’zlik va majhul darajada fe’l formalarini yasaydi. Undosh bilan tugagan negizlarga qo’shilganda oldida bir tor unli paydo bo’ladi va uning sifati o’zakning qalin ingichkaligi va oxirgi bug’indagi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog’liq.

adыr(ayir) - adrыl(ayril) bol(bo’l) - boluq(bo’lin).

-n qo’shimchasi sub’ekt harakatni haqiqatda bajarmasdan, bajarayotgandek qilib ko’rsatganda *ham* ishlatiladi.

7 .-sh(-s) qo’shimchasi birgalik va raqobatni anglatadi.Undosh bilan tugagan negizga qo’shilganda oldida tor unli, n li lahjada keng unli paydo bo’ladi.

baq(qara)-baqыsh(bir-biriga qarash)

Bo’lishsiz forma. Felning bo’lishsiz formasi -ma, -me qo’shimchasi bilan yasaladi. Buning-ma varianti qalin negizga, ingichka nsgizga -me orttiriladi.

bar(bor) - barma(borma)

kel(kel) - kelme (kelma)

Buyruq va istak formalari. Buyruq formasining ikkinchi shaxs birligi fs’lning bo’lishli va bo’ligshsiz negizi bilan bir xildir, ko’pligi *esa* birlik shakliga -n qo’shimchasini qo’shish bilan yasaladi.

ay(ayt), esid(eshit), barыn(boring(iz)).

Buyruqning -qыl, -kil, -G’ыL, -gil formasi ham bor: bilgil(bilgin), qag’ыl (qochgin).

Buyruq formasining III shaxsi -zun, -zUn qo’shimchasi bilan yasaladi. barzun(borsin), barmazun(bormasin).

Istak formasining I shaxs birligi -(a)уын, -(e)yin, ko’pligi -alым, elым qo’shimchasi bilan yasaladi: bol(bo’l) - bolayын(bo’lay)

bolma(bo’lma) - bolmalым(bo’lmaylik)

N lik lahjada bu qo’shimchalardagi ы va i o’rnida a va e kelishi mumkin.

Sifatdosh formalari. Qadimgi turkiy tilda quyidagi sifatdosh formalari mavdjud:

1. -mыsh(mыs), -mish(mis), -mush, -mUsh formasi.N li laqjada -mыsh, -mesh shakliga ham ega. Hozirgi o’zbek tilidagi -gan sifatdoshi ma’nosida ishlatiladi. Qaysi variantining ishlatilishi negizning qalin-ingichkaligi va oxirgi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog’liq. qal (qol) – qalmыsh (qolgan) tut (tut) – yeutmus (tutgan). Bu sifatdosh ham sifatlovchi, ham kesim vazifasida keladi : ыchgырmыsh bodunug’ - qo’ldan chiqqan xalqni (Ktu 13); kishii og’lы qылынmыs - inson bolasi yaratilgan (Ktu, I).

2. -duq -dUk -tuq, -tUk formasi. Bu ham sodir bo’lgan harakatni sifatlashtiradi.Qaysi variantining qo’llanilishi negizning qalin-ingichkaligiga bog’liq.

bar(bor) - barduq(borgan)

bol(bo’l) - boltuq(bo’lgan)

Bu sifatdosh ham sifatlovchi, kesim va hol vazifasida keladi. barduq yerde - borgan yerda (Ktu, 24); ichikdUk UchUn-taslim bo’lgani uchun(To’n, 3).

3. -g’u, -gU formasi. Bu forma sodir bo’lib turgan yoki sodir bulishi lozim bo’lgan harakatni sifatlantiradi. Qaysi variantining ko’llanishi yuqoridagi qo’shimchaniki singaridir:bar(bor) - barg’u(borish ksrak bo’lgan, boriladigan) kir(kir) - kirgU (kirish kerak bo’lgan, kiriladigan) hozirgi borgim yo’q ko’rgisi kelmadi singari iboralardagi -gi o’sha -g’u, -gU ning yangi shaklidir. Undan so’ng -luq -lUk ham qo’llanishi mumkin; uzguluk(uzadigan). Bu qo’shimcha hozirgi o’ o’zbek tilida ham bor: ko’rg’iligi bor ekan, borgilik qilmasin.

4. -tachы, -techi, -dachы, -dechi formasi. Bu forma sodir bulishi muqarrar bo’lgan harakatga bog’liq sifatni bildiradi:bol(bo’l) - boldachы(bo’lajak) ol(o’l) - oltechi(o’lajak)

5. -sыq-(sыg’).,-sik(sig), -suq(-sug’),-sUk(-suk) formasi.Bu forma doimiylik yoki munosiblik,loyiqlikni bildiradi. Qaysi variantining qo’llanishi negizning qalin-ingichkaligiga va oxirgi unlining lablangan-lablanmaganligiga bog’liq.

alqan(olqishlan)-alqansыq(olqishlanishga loyiq)tut(tut)-tutsuq(tutishliq tugishga loyiq)

6. -g'uchi, -gUchi, -kuchы, -kUchi formasi. Qaysi variantining qo'llanishi negizdagi unlining sifatiga va qalin-ingichkaligiga bog'liq. Bu qo'shimcha harakat nomi qo'shimchasi bilan ot yasovchi -chы. - chi qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan. SHuning uchun bunda sifatdoshlikdan ko'ra otlik xususiyati ko'proq:

kUl(kul) - kUlgUchi(kuluvchi)

ay(ayt) - ayg'uchы(mushovar, maslahatchi).

5 ma'ruza

QADIMGI TURKIY TILDA SINTAKSIS (2 **soat)**

Dars rejasi:

1. Qadimgi turkiy tilning umumsintaktik xususiyatlari.
2. So'z birikmalariga xos xususiyatlar. Bitishuv xususiyatlari.Boshqaruv xususiyatlari. Moslashuv xususiyatlari.
3. Gap. Qadimgi turkiy tilda sodda gap turlari.
4. Gap bo'laklari. Egaga xos xususiyatlar. Kesimga xos xususiyatlar. To'ldiruvchiga xos xususiyatlar. Aniqlovchiga xos xususiyatlar. Holga oid xususiyatlar. Uyushiq bo'laklari.

Adabiyotlar:

G'.Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til. T.: O'qituvchi, 1982 y. 42-53 betlar.*V. T.* Kondratev. Ocherk grammatiki drevnetyurkskogo yazыka. Leningrad, 1970.

1. A.M.SHerbak Grammaticheyokiy ocherk yazыka tyurkyokix tekstov X-XIII vv. Iz Vostochnogo Turkistana. M.-L., 1961. Str.21-26
2. G.A-Abdurahmonov. Issledovaniye po starotyurkskomu sintaksisu (XI vek), M., 1967.

Ma'ruzaning to'la mazmuni.

Tekshirish savollari.

1. Hozirgi o'zbek adabiy tili sintaktik strukturasidan qadimgi turkiy til sintaktik strukturasining farqi va o'xshashlik tomonlari nimalardan iborat?
2. Qadimgi turkiy tilda so'z birikmalari, ularni tashkil etgan bo'laklarni o'zaro aloqaga kirish usuliga ko'ra turlarini tushuntirib bering.

3. Qadimgi. turkiy tilda gap bo’laklari haqida ma’lumot bering.

Tayanch tushunchalar.

Bir tilning, shu jumladan o’zbek tilining gap qurilishi, so’z birikmalari, gap bo’laklari, ular orasidagi mazmun va grammatik aloqalar uzoq tarixiy taraqqiyot mahsulidir.Bu taraqqiyot shu tilning ichki taraqqiyot qonunlari asosida va boshqa tillarniig ta’siri tufayli ro’y beradi.

Predikativ birikmalarga ravishdosh, sifatdosh yoki shart fe’li boshqargan so’z birikmalari kiradi. Bunday birikmalar tarkibida grammatik ega-kesim bo’lmaydi,shuning uchun ham ular gap bo’la olmaydi.

Qadimgi turkiy til o’zbek va boshqa ko’p turkiy tillarning shakllanishida asos bo’lgan. Ammo bu turkiy tilning o’zi ham ma’lum taraqqiyot bosqichlarini boshidan kechirgan, shakllangan, ma’lum bir qolipga tushgan yozma til edi.Har qanday tilning qurilishi asta-sekinlik bilan taraqqiy etadi, o’zgaradi. Qadimgi turkiy tilning tuzilishi, sintaktik strukturasi bilan hozirgi zamon o’zbek va boshqa turkiy tillarniig tuzilishi o’rtasida ko’p o’xshashlik va farqli tomonlar bor. Bu tilning bir-bir yarim ming yillik taraqqiyoti natijasidir.

So’z birikmalari.

Qadimga turkiy tildagi so’zlar o’zaro birikib, ma’lum bir so’z birikmasini tashkil etgan va ma’lum fikrni yoki uning ayrim elementlarni ifodalagan. Bu so’z birikmalarining biri hokim — boshqaruvchi so’z bo’lib, ikkinchisi unga tobe so’z bo’lgan va hokim so’z tomonidan boshqarilgan.

Boshqaruvchi so’zning harakteriga ko’ra, so’z birikmalarini ikki gruppaga bo’lish mumkin:

1. Otli birikmalar.
2. Felli birikmalar.

1. Otli birikmalarda boshqaruvchi so’z ot bo’lib,u boshqarib kelayotgan so’z ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh bo’lishi mumkin: TUrUk bodun (TunD) —turk xalqi.

2.Fe’lli birikmalarda boshqaruvchi so’z fe’l yoki uning funksional shakllari — sifatdosh, ravishdosh, shart fe’li, harakat nomi bo’lib, o’nta tobe bo’lib boshqarilib kelayotgan so’z ma’lum kelishik yoki ko’makchi bilan birikib kelgan ot yoki otlashgan so’z, olmosh, ravish yoki ravishdosh, shart fe’li bo’lishi mumkin:qag’an q’sdьm — (Tun,5) hoqonni qo’lga oldim.

Qadimgi turkiy tilda so’z birikmalarini tashkil ettan bo’laklarni o’zaro aloqaga kirish usuliga ko’ra uch turga bo’lish mumkin: I. Bitishuv. 2.Boshqaruv. 3.Moslashuv.

1. *Bitishuv.* So’zlar hech qanday grammatik vositalar yordamisiz o’zaro aloqaga kirib, so’z birikmasini tashkil etadi.Bunday so’z birikmalari mazmun va intonatsiya yordami bilan o’zaro birikadi.Quyidagi so’z turkumlari bitishuv yo’li bilan so’z birikmasini tashkil etgan:

1) Ot bilan ot: TUrUk bodun (Tun,1) - turk xalqi.

2) Ot bilan fe’l: Kishi og’lan (Irk bitig,80) - o’g’il bola.

Bu xil birikmalarning ko’pi hozirgi zamon o’zbek tilida ma’lum grammatik vosita bilan bog’lanadi.

3)Sifat, son, olmosh yoki sifatdosh bilan ot: Yag’ыz yer(Kt 28) qora yer.

Sifatdosh aniqlovchili birikmalar ko’pincha sostav jihatidan keng bo’ladi. Tengri teg teigride bolmыsh tUrUk bilge qaran—(Kg,1) — Falakday xudodan bulgan turk dono hoqoni.

4) ravish, ravishdosh, shart fe’li bilan fe’l: Sabымын tuketi esidkil (Kt,27) - so’zimni to’liq eshitgil.

2. *Boshqaruv*. Tobe so’z ma’lum grammatik vosita kelishik formalari yoki ko’makchilar orqali bosh so’zga birikadi;

1) qadimgi turkiy tilda bosh kelishikdan tashqari tushum,jo’nalish,o’rin-chiqish, vosita kelishiklari bo’lib, tobe so’z ma’lum bir kelishik affikslari yordami bilan bosh so’zga bog’lanadi:

a) tushum kelishigi -g(-g, -ыg), -ig, -ug, (-ug. -ын), -in, -n vositasida. Bodukыg qoi almыs (Kt,29) — kqp xal*u1arni oldi.

b) junalish kelishigi -qa(-ke, -raru), -gerU, -a, -e vositasida. On tUnke... bardымыz (T>?n,26) - o’n tunda bordik

v)o’rin-chiqish kelishigi--da//-de//-te vositasida. Tabg’achda adrыltы (Tun,2) - Tabg’achdan ayrildi.

g) vosita kelishigi —n, -ын, (-in, -un), -Un vositasida. Yo’z artыq okun urtы (Kt,33) — yuzdan ortiq o’q bilan urdi.

2) Ot yoki ot ma’nosidagi so’zlar ko’makchilar bilan birikib, hokim so’zga bog’lanadi. qadimgi turkiy tilda quyidagi ko’makchilar qo’llanadi: birle, asha. Kul tegin birle (Kt,27) - Kul tigin bilan.Ba’zi o’rinlarda ma’lum kelishik formasini olgan ot yoki olmosh ko’makchiga bog’lanib, u bilan birga hokim so’zga birikadi: Temir qapыg’qa

tegi (Tun,45) - temir darvozagacha.

Misollardan ko'rinadiki, boshqariluvchi tobe so'z ot yoki otlashgan so'z bo'lib,u ma'lum kelishik formasini oladi yoki ko'makchi bilan birikadi. Boshqaruvchi so'z esa fe'l yoki harakat bildiruvchi so'zlar bo'ladi. Ammo ba'zan boshqaruvchi so'z sifat, ravish, ko'makchi yoki shu vazifadagi so'z bo'lishi ham mumkin. CHechek O'z tolU boltы (Oyo, 617 (11-12)) — gul bilan to'ldi.

*3. Moslashuv.*Qadimgi turkiy tilda ega bilan kesim, hozirgi zamon o'zbek tilidagi kabi, shaxs va sonda o'zaro moslashgan. Ammo bunda quyidagiga o'ziga xoslik bo'lgan:

1) Uchinchi shaxs ot kesim ko'pincha ol bog'lamasi bilan kelib, u kesimlik belgisi bo'lib, ega bilan kesim munosabatini ifodalaydi. Ashы.negU ol (Oyo, 610(11)) -ovqati nimadir?

2) Kesimi shart fe'li (-sar), (-ser), sifatdosh (-duq), -duq -mыsh, (-mis), kesim bilan ega orasida ham shaxs va sonda moslik bo'lmaydi, kesim har uchala shaxs uchun bir xil shaklda qo'llanadi: Elteris qag'an qazg'anmasar, yoq erti erser, benozum, bilge Tonyo'quq qazg'anmasar, ben yoq ertim erser . . .idi *yoq* ertechi erti.Eltaris hoqon g'alaba qozonmasa, u bo'lmasa, men, o'zim dono To'nyuquq, g'alaba qozonmasam, men yo'q bo'lsam edi, yerga ega ham yo'q edi.

Qadimgi turkiy tilda,hozirgi o'zbek tilidagidek sondagi moslashish shart bo'lgan emas.

Sodda gap gurlari.

Qadimgi turkiy tilda,hozirgi zamon turkiy tillaridagidek, sodda gaplar fe'l kesimli yoki ot kesimli bo'ladi.

Fe'l kesimli gaplarning kesimi aniqlik fe'li yoki fe'lning turli funksional shakllari bilan ifodalanadi:kop bilirsiz - kun bilasiz. kute tururlar - kutib turadilar.Yangыltыg' - yanglishding. Okush kishing oltig - ko'p kishini o'ldirdi. Igidiig.amegement, tolg'atmang — tarbiya qiling,qiynamang, hayajonlantirmang.

Ot kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish bilan ifodalanadi. Kesimlik ko'rsatkichi vazifasida bog'lamalar (-man, -san, -di, ol, bol, tur, ar kabilar) qo'llanadi. Ammo bu belgilar bo'lmasligi ham mumkin. Bunda kesim gapning mazmunidan, intonatsiyasidan,o'rnidan bilinib turadi. TUrUk bodun yeme bo'lg'anch (ol, temish) ogыz yzme tarqanch ol, - temish. — Turk xalqi ham tinch emas, o'g'uz ham tarqoq - debdi. Ozum tardush O'ze shad ertim - o'zim tardush eli ustidan shod edim. Qarluq bodun . . . yash boltы -qarluq xalqi dushman bo'ldi.

.Qadimgi turkiy tilda gapning mazmun va intonatsiyasiga ko'ra turi — darak so'roq,

buyruq gaplar mavjud bo'lgan.

So'roq gaplar so'roq olmoshi yoki yuklama orqali ifodalangan:qag'anыm qanы — hoqonim qani? Bar mu ne - shunday bo'lishi mumkinmi?

Gapning tuzilishiga ko'ra turi - to'liq gaplarga nisbatan, to'liqsiz gaplar ko'proq qo'llangan. Sabыg' yacha kelti -(uning) so'zini(olib) - (u) qaytib keldi. SU yorыlыm, unamang – lashkar bilan yo'lga chiqaylik (desa), (siz) unamang. Tылыg' kelUrti sabы - (u) til (tutib) keltirdi, (uning) so'zi (shunday). Bir sostavli gaplardan shaxssiz gaplar qadimgi turkiy tilda qo'llanadi. Bu xil gaplarning kesimi majhul fe'l bilan ifodalanadi yoki aniqlik fe'li majhul fe'l ma'nosida qo'llanadi.O'ze kok tengri asra yarыz yer qlыntukda (Tun,!) - yuqorida ko'k osmon, pastda qo'ng'ir yer yaratilganda.

Kesimni mavhum tushunchalarni ifodalovchi ba'zi shaxssiz gaplar ham qadimgi turkiy tilda qo'llangan: Tuk udыsыqm kelmedi kuntuz olursыqm kelmedi. (To'n, 12) -- Tunda uyqum kelmadi. kunduz o'tirgim kelmadi.

Qadimgi turkiy tilda ko'chirma gaplar keng qo'llanadi. Ko'chirma gap avtor gapi bilan te - fe'li orqali bog'lanadi: bordun anchagemis: "Ellig bodun ertim, elim amtы qanы? Kimke elig qazg'anurmen?" - ger ermis. -"qaganlыg' bodun ertim,qag'anыm qanы, ne qaranqa isig kUchUg berur men? Ter ermis (Kt,9) - Xalq shunday leydi: "Davlatli xalq edim, davlatim endi qani? - der emish. -Xoqonli xalq edim, hoqonim qani? qaysi hoqonga mehnatimni, kuchimni sarf qilaman?" — der ekan.

Ba'zi ko'chirma va o'zlashtirma gaplar ~*ma* fe'li vositasida emas. mazmunga ko'ra birikadi. Ol sabыg' ыt(t)ыm: qantauын (Tun,33) - shu gapni yubordim: nima qilayin.

Gap bo'laklari.

Qadimgi turkiy tilda ham, hozirgi turkiy tillardagi kabi, bosh bo'laklar (ega va kesim), ikkinchi darajali bo'laklar (aniqlovchi, to'ldiruvchi,hol) bo'ladi. Ammo bu bo'laklar shakllanishi va o'rniga ko'ra hozirgidan farqlanadi.

Gap.

Ega - ish harakat, belgi - xususiyatning egasi, gapda fikr yuritilayotgan hokim bo'lakdir. SHuning uchun ham ega bosh kelishik formasida bo'ladi. Ammo qadimgi turkiy tilda har qanday bosh kelishikdagi so'z ham ega bo'la olmaydi. kakanы sU tasыqdы (Tun, 33) - hoqoni lashkar bilan yo'lga chiqdi. Ega I yoki 11 shaxsga taalluqli bo'lganda ko'pincha ifodalanmaydi. Ammo qadimgi turkiy tilda III shaxsga oid egalar ham ba'zan

ifodalanmagan. Bunday eganing mazmuni umumiy kontekstdan ayon bo'lib turgan: Tegdimiz, yaydымыz. Ekindi kun keldi. (Tun) — (dushmanga) tashlandiq (uni) yoyib tashladiq Ikkinchi kun (dushman) yana kaytib keldi.

1 va II shaxsdagi ega ta'kidlash zarur bo'lgan o'rinlarda qo'llanadi: Biz az biz (Ungin,7) — biz ozmiz.

Qadimgi turkiy tilda otlashgan sifatdoshlar bilan ifodalangan egalar qo'llanadi, Bu xil egalar sostav jihatidan keng bo'ladi: Uda tashda kalmыshi qabrannb yeti yO'z boltы (Tun) - Daraxt, toshda qolgani to'planib, yetti yuz bo'ldi.

Bosh kelishikdan tashqari jo'nalish kelishigidagi ot ham ega vazifasida qo'llangan: Ichre oshsыz, tashra tansыz (Kt,26) - ichi oshsiz, tashi to'nsiz.

Kesim. Kesim gapni shakllantiruvchi asosiy bo'lakdir. qadimgi turkiy tilda kesim vazifasida fe'lning turli zamon va mayl formalari, funksional shakllari qo'llanib, fe'l kesimli gaplarni tashkil etgan Ot kesimli gaplarning kesimi ot, sifat, son, olmosh, ravish orqali ifodalangan. Bu xil kesimlar orqali turli zamon, mayl va modal munosabatlarni ifodalash uchun bog'lamalar va shu vazifadagi yordamchi so'zlar qo'llangan:

1. er: Bir turuqы ermis (Tun,24)-bir manzil ekan.Er-mustaqil ravishda kesim vazifasini ham bajaradi: kanыn . . .uch og'lanы ergi (oyo, 607-608) xoning uch o'g'li (bor) edi.
2. Turur: bars olgeli... turur (Oyo, 6 10(23)-bars o'lishga (yaqin)turibdi.
3. Ol. Bu yordamchi faqat III shaxsni ta'kidlab ko'rsatish uchun qo'llanadi: Ashы negu ol (Os 610(11)- Ovqati nimadir?
4. Bol- (va uning turlari): el yeme el boltы (Tun,56) - El ham el bo'ldi.

To'ldiruvchi. qadimgi turkiy tilda To'ldiruvchilar, qozirgideq vositasiz yoki vositali bo'lib, ot yoki ot ma'nosidagi suqlar bilan ifodalanadi. Bu davrdagi To'ldiruvchiga kos harakterli xususiyat quyidagilardir:

1) To'ldiruvchi vazifasida ayrim kelishik formasi bilan shakllangan so'zlar qo'llangan, bu formalar hozir ishlatilmaydi.

2)Bosh kelishikdagi so'zlar bilan ifodalangan To'ldiruvchilar ko'proq qo'llangan.

3)Ma'lum kelishik va ko'makchilar o'ziga xos ma'no va vazifani o'tagan.

Aniqlovchi. qadimgi turkiy tilda,hozirgidekaniqlovchilar, sifat, son, olmosh bilan ifodalanadi: Silig qыz (KT) – chiroyli qiz.

Izohlovchi. Ot bilan otni aniqlash yodnomalarda kent qo'llanadi: OgUm qatun (Kt,40(9)

- onam Xotun.

Hol qadimgi turkiy tilda hol ot, son, ravishdosh, olmoshlar orqali ifodalanadi. Ancha temis (1St) - shunday debdi.

Uyushiq bo'laklar. qadimgi turkiy tilda gapning bosh bo'laklari ham, ikkinchi darajali bo'laklari ham uyushib kelishi mumkin, Bilgesi, chabыsы ben ok ertim (Tun,7) - Allomasi, chovushi men o'zim edim.

*Ajratilgan bo'laklar.*Ajratilgan gap bo'laklari ifodalangan ma'noni ajratib , ta'kidlash uchun stilistik vosita bo'lgan.

6- ma'ruza

Qadimgi turkiy tilda qo'shma gaplar (2- soat)

Dars rejasi :

1. Qadimgi turkiy tilda qo'shma gaplar. Paratonik va gipotonik konstrukiiyalar.
2. Bog'lovchili va bog'lovchisiz gipotonik konstruksiyalar.
3. Qadimgi turkiy tilda ergash gapli ko'shma gaplarning tiplari. Maqsad ergash gapli konstruksiya. Payt ergash gapli konstruksiya. Sabab ergash gapli konstruksiyalar. SHart ergash gapli konstruksiyalar. To'ldiruvchi ergash gapli konstruksiyalar
4. Bir necha ergash gapli konstruksiyalar.

Adabiyotlar.

1. R.Abdurahmonov, A.Rustamov. Qadimgi turkiy til. T.:O'qituvchi,1982 y. 53-64 betlar.
2. N.L.Boskakov, K voprosu o proisxojdenii uslovnoy formы na —sa/-se v tyurkskix yazыkax st. Ak. Gordiyevskomu V.A., 1956, 46 bet.
3. A.M.SHerbak Grammaticheskiy ocherk yazыka tyurkskix tekstov X-XU vv. Vostochnogo Turkistana M.-L., 1961. Str.17-26

Ma'ruzaning to'la mazmuni.

Tekshiriish savollari

1. Qadimgi turkiy tilda ko'shma gaplarni aytib bering.
2. Qadimgi turkiy tilda ergash gapli qo'shma gaplarning tiplari,ularning vazifalari nimalardan iborat?

Tayanch tushunchalar.

Paratonik konstruksiyalarni tashkil etgan qismlar (gaplar) logik jihatdan bir-biriga bog'langan bo'lsa-da, mazmunan mustakil bo'ladi. Ularning tarkibiy qismlar o'zaro, grammatik vositasiz bog'lanadi, hozirgidek teng bog'lovchilar qo'llanilmaydi.

Gipotonik konstruksiyalarni tashkil etgan gaplar o’zaro maxsus intonatsiya bilan bog’lanadi yoki bu xil bog’lovchilar yoki bog’lovchi vazifasidagi vositalar qo’llanadi.

Qadimgi turkiy yodnomalar tilida qo’llangan gaplarning chegarasi kesimlarning o’rniga va gaplarning mazmuniga ko’ra belgilanadi, gaplarni biriktiruvchi bog’lovchilar deyarli qo’llanilmaydi, bog’lovchi vazifasidagi vositalar ham qo’llanadi, gaplar orasida tinish belgilari ishlatilmaydi.

YOdnomalar tilida sodda gaplar o’zaro zich logik munosabatda bo’lib, biri ikkinchisiga bog’liq holda kelib chiqadi. SHuning uchun ham bu xil gaplarni bir-biridan mustaqil sodda gap tarzida ajratish qiyin: Bars bek erti, qag’an at bunta biz bertimiz - Bars nomli bek bor edi, unga hoqon unvonini bu yerda biz berdik. Ammo qadimgi turkiy tilda yuqoridagi kabi konstruksiyalardan tashqari, qismlari orasida logik munosabati ma’lum darajada differensiallashgan konstruksiyalar bor. Ular ma’lum darajada hozirgi zamon o’zbek tilida qo’llanuvchi qo’shma gaplarga yaqin turadi. Bu murakkab gap konstruksiyalari , qismlarining o’zaro logik va grammatik aloqasiga ko’ra, ikki katta guruhni tashkil etadi:

1. Parataksis konstruksiyalar
2. Gipotaksis konstruksiyalar .

Parataksis konstruksiyalar.

Parataksis konstruksiyalar qadimgi yodnomalar tilining asosini tashkil etadi. Bu xil konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplar tuzilishiga ko’ra oddiy bo’lib, ular umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi, mazmunan va shaklan bir-birita tobe bo’lmaydi, ammo umumiy bir fikrni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bu xil sodda gaplar asosan sanash ohangi bilan talaffuz etiladi.

Parataksis konstruksiyalar bir paytda yoki ketma-ket ruy bergan yoki mavjud bo’lgan vokea-hodisa, belgi-xususiyatlarni ifoda etadi.

A) bir paytda ro’y bergan voqea-hodisa, belgi-xususiyatni ifodalovchi konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari ot-kesim yoki fe’l kesim bo’lib, odatda, ular bir xil zamonni ifodalaydi. Uder segUn kzltы; Tabg’ach qag’anta Isyi Likeng kelti, bir tUmen ag’ы, altun, kUmUsh kergeksiz kelUrti - Udar sangun keldi; Tabg’ach hoqondan keldi; Tabg’ach hoqondan Isyi Likang keldi, bir tuman ipak oltin, kumushni haddan ortiq keltirdi.

B) ketma-ket ro’y beradigan voqea-hodisalar, belgi-xususiyatlarni ifodalovchi

konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplarning kesimlari shaklan bir xil zamonga oid bo'lsa ham, mazmunan hodisa yoki xususiyat ketma-ket ruy beradi. Ol sabug' esidip, tUn udыsыqым kelmedi-Bu so'zim eshitib kechasi uyqum kelmadi, kunduzi o'tirgim kelmadi.

Gipotaksis konstruksiyalar.

Qadimgi turkiy yodnomalarda shunday murakkab gap konstruksiyalari ham uchraydiki, bunday konstruksiyalarni tashkil etgan sodda gaplar mazmunan bir-biriga bog'liq bo'ladi, biri ikkinchisini mazmunan to'ldiradi yoki izohlaydi. SHuning uchun ham bunday konstruksiyalarni tashkil etgan gaplar o'zaro maxsus intonatsiya bilan bog'lanadi yoki bu xil gaplarni biriktirish uchun maxsus bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi vositalar qo'llanadi. SHunga ko'ra gipotaksis konstruksiyalar ikki turga bo'linadi.

1) BOG'LOVCHISIZ gipotaksis konstruksiyalar
2) BOG'LOVCHILI gipotaksis konstruksiyalar.

Bog'lovchili gipotaksis konstruksiyalar

Gipotaksis konstruksiyalarni tashkil etgan qismlar o'zaro grammatik bog'lovchilarsiz — intonatsiya vositasida birikadi. Ammo qismlarni bir-biriga bog'lash uchun ba'zi leksik elementlar ham xizmat qiladi.

I *Sabab-natija.* Ozi yangылti, qag'anы oltы, bodunы kUng qul boltы (Kt,20) - o'zi adashdi, hoqoni o'ldi, xalqi cho'ri, qul bo'ldi.

.' *Sabab*. . . angofkor U biling, turk amtы bodun begler, . . . begler . . . yangыl-tachыsыz(Tun, 11) ~ unga qarab bilinglar, turk xalqi beklari, beklar yengilishga moyilsizlar-ku.

*. *Payt.* Bars bag erti, qag'an at bunta biz bertimiz (Kt,20) — Bars bek edi, o'shanda xoqon deb biz nom berdik.

•1. *Izohlash* Biror bo'lakning mazmunini izohlaydi, aniqlaydi yoki to'ldiradi: Sabug' qana keltiolurung teyin temis (Tun. 33-34) - so'zini yana keltirdi - o'tiringlar debdi.

Bog'lovchili gipotaksis konstruksiyalar

Gipotaksis konstruksiyalarning birinchi qismi ikkinchisiga bog'lovchi yoki bog'lovchi vazifasidagi vositalar-sifatdosh,ravishdosh . SHart fe'li, kelishik formalari,nisbiy olmoshlar orqali bog'lanishi mumkin. SHuning uchun bu xil konstruksiyalar hozirgi ergash gapli konstruksiyalarga o'xshasa xam, mazmuni bog'lovchi va bog'lovchi vazifasidagi vositalarning o'ziga xosligiga ko'ra, bunday

konstruksiyalardan farq qiladi.

1. __Sifatdosh orqali. 2. SHart fe’li orqali.3.Nisbiy olmoshlar yordami bilan. 4. Ravishdosh orqali. 5. Bog’lovchilar orqali. 6. UchUn ko’makchisi orqali.

Ergash gapli qo’shma gaplarning tiplari.

I *Maqsad ergash gapli konstruksiya,* Maqsad ergash gap gipotaksis konstruksiyalarni tashkil etgan qismlarning biri ikkinchisidan anglashilgan mazmun nima maqsadda ro’y berishini ifodalaydi. Maqsad ergash gap bosh gapdan oldin keladi.

2.*Payt ergash gapli konstruksiya.* Payt ergash gap bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro’y berish vaqtini ifodalaydi va bosh gapga o’rin-payt-chiqish kelishigi formasi orqali bog’lanadi. KUn tog’uru sUng Usdim (Moyun chur, 13) - Kun chiqishi bilan jangga kirdim.

3.*Sabab ergash gapli konstruksiya*. Sabab ergash gapni tashkil etgan gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning ruy berish sababini ifodalaydi, ergash gapni bosh gapga bog’lashda UchUn ko’makchisi xizmat qiladi. Bu holatda ergash gap kesimi sifatdosh yoki ot, sifat va bor so’zi orqali ifodalanadi.

4- *SHart ergash gapli konstruksiya,* SHart ergash gap bosh gapdan anglapshlgan mazmun qanday shart-sharoitlarda ro’y berishini ko’rsatadi va kesimi shart fe’li yoki ot bilai ifodalanadi. Kul tagin yok erser, kop oltechi artigiz (Qt,50(10) — Qul tegin bo’lmasa, butunlay o’lar edingiz.

5. *Aniqlovchi ergash gapli konstruksiya.*YOdnomalarda aniqlovchi ergash gapning maxsus turi uchraydi va bevosita o’zi aniqlab kelayotgan otning oldida qo’llanadi.Bu xil ergash gaplar bosh gap tarkibiga kiradi, tashqi intonatsiya tomonidan bir gap sifatida .o’qiladi: Tinsi og’lu yatыg’ma Bengigek tag’ыg’ . . . (Tun,44) - Tinsi o’g’li yashaydigan Bangligak tog’ini . . .

6. *To’ldiruvchi ergash gapli konstruksiya.*To’ldiruvchi ergash gap bosh gap tarkibidagi olmosh — To’ldiruvchi yoki fe’l- kesimning ma’nosini izohlaydi va bosh gap mazmunini to’ldiradi:. . nengneng sabым erser, banggU tashqa urtim(KT.11) - Nimaiki so’zim bo’lsa,mangu toshga urdim.

Bir necha ergash gapli konstruksiyalar.

Qadimgi yodnomalar tili ma’lum darajada shakllangan yozma adabiy til edi.SHuning uchun ham bu yodnomalarda qo’shma gapning turli formalari — bir necha ergash gapli

qo’shma gaplar, ergash va bog’lovchisiz gaplarni o’z ichiga olgan murakkab sostavli qo’shma gaplar qo’llaniladi.

YOdnomalarda bir necha ergash gapli ko’shma gapning har ikki turi (bir tipli va turli tipli) qo’llanadi. O’ze tengri basmalar asra yertelinmesar tUrUk bodun elining torUning kim artatы — Tepadan osmon bosmagan bo’lsa, pastda yer yorilmagan bo’lsa, turk xalqi davlatingni, hukumatingni kim buzdi? Elteris qag’an qazg’anmasar, yoq erti erser, (matingni kim buzdi) Elteris qagan ben ozUm, bilg’a Tonyo’quq qazg’anmasar, ben yoq ertim erser qapag’an qaqahan turk sir bodun yerinte bodun yeme kishi yeme, idi yeme yuq ertechi erti — Eltaris hoqon qozonmasa yuq bo’lgan bo’lsam qapag’an hoqon, turk sir xalqi yeri kam, xalq kam, kishilar kam, xukmdorlar kam yo’q bo’lgan bo’lardi. Tengri yarlыqaduqын UchUn, ozim qutым bor UchUn qag’an olurtым - Tangri yorlaqagani uchun, o’zimning baxtim bor uchun, xoqon bo’lib o’tirdim. B) Tengri yarlыqaduk UchUn, okUsh tayUn biz qorqmadыmыz, sUngushdUmiz - Tangri yorlaqagani uchun, ko’p deb biz qo’rqmadik , urushdik

Murakkab tarkibli konstruksiyalar

Tarkibi ham gipotaksis,ham parataksis tipli konstruksiyalardan tuzilgan murakkab sostavli qo’shma gaplar uchraydi: Tangri kUch .bertUk UchUn qang’ым qag’an sUsi bori tag armis, yagыsы qony tag armis - Tangri kuch bergani uchun, otam xoqonning lashkari bo’riday ekan, dushmani quyday ekan. Yuyqa qalын bolsar toplag’uluq alp ermis, yinchke yog’an bolsar O’zgUlUk alk ermis - YUpqa qalin bo’lsa, to’plovchi alp bo’ladi, ingichka yug’on bo’lsa, o’zuvchi alp bo’ladi.

Qadimgi turkiy yozma yodgorliklar ko’p bo’lmay, topilgan yodnomalar ham ma’lum bir sohaga oiddir. Ularning stili chegaralangan bo’lsa ham, qadimga turkiy til sintaksisi buyicha ba’zi xulosalarga kelish mumkin.

Qadimgi turkiy til ancha shakllangan, ma’lum qolipga tushirilgan tildir. Bu til strukturasida murakkab, keng sostavli gaplar, parataksis va gipotaksis konstruksiyalar ham, alohida sodda gaplar ham mavjud.

1. Parataksis konstruksiyalar sodda gaplarning bog’lovchisiz birikuvidan hosil bo’lib, hozirgacha ham qo’llanib keladi va o’ziga xos mazmun munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qiladi. Kesim sifatdosh, ravishdosh, shart fe’li orqali ifodalanganda, ega-kesim shaklan moslashmaydi.(Ba’zan sifatdosh-kesim egalik qo’shimchasi orqali ega bilan moslashadi).